



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБАЙ



# «TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

## MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY  
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,  
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**TOSHKENT - 2025**



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

**G.Norimova** – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Tahrir hay'ati:**

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,  
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

*Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

*Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.*



14. Shirinova, Y. (2024). КОНФЛИКТНОЕ ОБЩЕНИЕ: ФАКТОРЫ, ПРИЧИНЫ, НЕКОТОРЫЕ ПУТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ. *Uzbekistan Language and Culture*, 2(02). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/113>

15. Shirinova, Y.T., Iskandarova, G.T. 2025. "Til ta'limiga antroposentrik yondashuv masalasiga :r". O'zbekiston: Til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 1 (5): 165-176.: 10.52773/tsuull.aphil.2025.1 (5)/UGNZ2770.

## SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

**Xaydarova Madinaxon Umidjonovna**

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyoti  
yo'nalishi*

*1-kurs magistranti*

*madinakhaydarova726@gmail.com*

**Annotatsiya.** Sinergetika bugungi kunda o'quvchi-yoshlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ijodiy va prognostik fikrlash o'quvchiga o'z-o'zini tashkil qilish tizimi sifatida ishlashga yordam beradi. Mazkur maqolada sinergetik yondashuvning mohiyati, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish mezonlari, hamkorlikda o'qitishning afzalliklari hamda 5-sinf o'quvchilarida leksikologiya bo'limiga oid lingvistik bilimlarni sinergetik yondashuv asosida o'qitish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** sinergetika, sinergetik yondashuv, hamkorlikda o'qitish, shaxslararo munosabat, pedagogik hamkorlik, leksikologiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается сущность синергетического подхода, критерии деления учащихся на малые группы, преимущества совместного обучения, а также методика преподавания языковых знаний по лексикологии учащимся пятых классов на основе синергетического подхода.

**Ключевые слова:** синергетика, синергетической подход, совместное обучение, межличностные отношения, педагогическое сотрудничество, лексикология.

**Abstract.** This article discusses the essence of the synergistic approach, the criteria for dividing students into small groups, the advantages of collaborative learning, and the methods of teaching linguistic knowledge in the lexicology section to 5<sup>th</sup> grade students based on the synergistic approach.

**Keywords:** synergetic, synergistic approach, collaborative learning, interpersonal relationships, pedagogical cooperation, lexicology.

Zamonaviy jadal rivojlanayotgan dunyoda ko'p maqsadli, global qarashga, jamiyatning murakkab muammolarini tahlil qilishga qodir, turli muammolarni hal qilishga tayyor shaxsni shakllantirishga katta talab mavjud. Bugungi kunda bo'layotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi o'qitish tizimi uni yanada rivojlantirish strategiyasini nazarda tutuvchi mutlaqo yangicha yondashuvga ehtiyoj sezmoqda. Globallashuv davrida pedagogika sohasida turli xil yondashuvlardan foydalanish o'z samarasini berib kelmoqda. Xususan, til o'zlashtirishda sinergetik yondashuv sinergetikaning asosiy tamoyillarini



amalga oshirishga :r bir qancha yangi jihatlarini ochib berdi. O'quv jarayonidagi ochiqlik prinsipi, uning nochiziqligi (o'zgarmasligi) sinergetikaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim jarayonidagi ochiqlik faqat o'qituvchi faoliyatini ta'kidlamasdan, o'quvchilar bilan birgalikdagi hamkorlikda o'qitish g'oyalarini ilgari surishga qaratilgan.

Sinergetik yondashuvning mohiyati, birinchi navbatda, o'quvchini nafaqat shaxslararo munosabat, balki o'zi bilan hamkorlik qilish uchun o'zini kashf etishga undaydigan rag'batlantiruvchi vositadir. Sinergetik yondashuv ta'lim faoliyatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish ustunligiga asoslanadi va o'z-o'zini ochib berish, takomillashtirish, o'z-o'zini anglash maqsadida mavzuga ta'sirni rag'batlantirish iborat[4]. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'z-o'zini anglash, yoki shaxs "men"ini shakllantirish ham o'ta muhimdir. Bu o'quvchida o'z xulqini tarkib toptiradigan, o'z-o'zini anglagan va anglamagan tasavvurlari tizimi sanaladi. Olima Sh.Abdullaeva ta'kidlaganidek, o'quvchi "men"i bilan bog'liq barcha holatlar shuni ko'rsatadiki, o'rganish bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar ijodiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklar sabablarini tushunishi uchun muhim ahamiyatga ega. O'quvchi "men"i yoki boshqacha aytganda o'z-o'zini anglashning mazmuni, psixologlar ta'kidlaganidek, ta'lim va tarbiyaning eng muhim natijalaridan biridir. Bu esa bolaning ijtimoiylashuvi jarayonini tashkil etadi. O'qituvchi bolani faqat o'quvchi deb emas, balki bir butun shaxs, o'ziga xos inson deb yondashuvi lozim. Darsda bolaning shaxsiy sifatlari boyib, o'quvchilar ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi hamda o'quvchilarning xulqidagi ijobiy qirralar rivojlanadi, ijobiy tasavvur mashqlari vositasida kuzatuvchanlik, xotira, diqqatni kuchaytirish imkoni tug'iladi, psixologik to'siqlar bartaraf etiladi. Sinergetik yondashuv asosidagi ta'limda yangi darajadagi holatni keltirib chiqaradigan natija oldingisidan samarali bo'lishi hamda o'z "men"ini anglagan shaxsning o'zini o'zi tashkil etish jarayoni muhim omil sifatida qaraladi.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari har bir sohada o'z ishining yetuk mutaxassislarini yetishtirib chiqarishga harakat qilmoqda. Ta'limda ham kundan kunga o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularni ilm olishda to'g'ri yo'naltirish uchun bir qancha metodlar ishlab chiqilmoqda. Jumladan, sinergetik yondashuv barcha jabhalarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

G.M. Kojaspirova ta'kidlashicha, "sinergetika" tushunchasi "ta'lim" tushunchasiga juda yaqin (yunon tilidan tarjima qilinganda "birgalikdagi harakat", "hamkorlik" degan ma'noni anglatadi). Dunyoni sinergetik anglash insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega: sinergetik fikrlash usuli ochiqlik, dialogizm va muloqot bilan ajralib turadi[5].

O'quvchilarda lingvistik bilimlarni sinergetik yondashuv asosida o'rgatish samarali hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, har qanday yangi ko'nikmani individual o'rgangandan ko'ra, jamoa bo'lib o'rganish oson va qiziqarli bo'ladi.



“Insert” GO yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash, ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi[2]. O'qituvchi yechimi topilishi lozim bo'lgan mavzuni aniqlaydi. Undan keyin topshiriq shartlari tushuntiriladi va o'quvchilar kichik guruhlariga birlashtiriladi. Guruhlar o'zlariga berilgan topshiriqni bajaradi. Guruhlar yechimni sinf jamoasi hukmiga havola etadi, ya'ni dastlab o'quvchilarning o'zlari javoblarni muhokama qilishadi.

O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lish mezonlari:[6]

- o'quvchilarni qobiliyatlariga ko'ra kichik guruhlariga bo'lish, o'quvchilarni bunday qobiliyatiga ko'ra bo'lish aslo kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq bo'lmasligi lozim. Bunday guruhlarda talabalar erkin harakat qila olishlari va vaqti kelsa boshqa guruhga o'tishga tayyor bo'lishlari lozim;

- hamkorlik guruhlar o'quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi, bunday guruhlar turli bilim va qobiliyat darajasiga ega o'quvchilardan iborat bo'lishi ham mumkin. Ko'p hollarda bunday guruhdagi o'quvchilarlar ma'lum bir rol, ya'ni mas'uliyatni o'z yelkalariga oladilar. Mazkur guruhni shakllantirishda asosiy e'tibor o'quvchining kognitiv xohish-istaklariga emas, balki uning ilmiy va ijtimoiy bilimiga beriladi;

- moslashuvchan guruhlar o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va xohish-istaklari asosida tashkil etiladi. Guruhning qiziqishlari o'zgarsa, shunga ko'ra uning a'zolari ham o'zgaradi. Bunday guruh o'quvchilarda moslashuvchanlik ko'nikmasini shakllantiradi.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi Amerikadagi J. Xopkins universiteti professori R.Slavin, Minnesot universiteti professori R. Jonson, D. Jonson, Kaliforniya universiteti professori Sh. Sharonlar tomonidan ishlab chiqilgan[1].


Pedagogik hamkorlik jarayonida jamoa bo'lib ishlash guruhida mavzu :rasida yangi mushtarak g'oyalar tug'ilishiga zamin hozirlaydi. Tabiiyki, pedagogik hamkorlik texnologiyasi ta'lim jarayonida samaradorligi sinalgan ilg'or metodlardan foydalanishni taqozo etadi[3]. O'quvchilar birgalikda guruh bo'lib ishlashi – savol va topshiriqlarni bajarishda yakdil fikrga kelishga, muammoning sababini oson yecha olishda, mavzuga to'g'ri yo'nalish olishida o'z aksini topadi va ma'lum miqdorga natijaga erishiladi.

Quyida biz sinergetik yondashuv, ya'ni hamkorlikda o'qitish orqali 5-sinf o'quvchilarida lingvistik bilimlarini shakllantirishga :r topshiriqlarni keltiramiz.

*1-topshiriq.* O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib quyidagi so'zlarning ma'nosini topish vazifa qilib beriladi. Bunda o'quvchilar sinergetik yondashuv asosida o'z qobiliyatlarini namoyish etishadi. Bu topshiriqdan maqsad – leksikologiya tarkibiga kiruvchi omonim so'zlar haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanishni o'rgatish hisoblanadi. Quyidagi so'zlar 4 ta guruhga bir xil tarzda beriladi. Javoblarni o'qish davomida o'qituvchi faqat eshitadi. Barcha guruhlar javobini o'qib bo'lgach, o'qituvchi keyin to'g'ri javoblarni o'qiydi, yo'nalish beradi. Chunki sinergetikaning asosiy



tamoyillaridan biri o'quvchilarni o'z-o'zini tashkil etish, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantirish, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishdan iboratdir.



*2-topshiriq.* Berilgan so'zlarning antonimini toping. Bu topshiriqning ham leksikologiya bo'limidan uzoqlashmagan holda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish hamda so'zlarni turkumlarga ajratishni o'rgatishdan iborat. Ushbu topshiriq har bir o'quvchiga alohida beriladi. Bundan maqsad o'quvchilarning individual bilimlarini, qobiliyatlarini shakllantirish, o'z-o'zini tashkil etishdir.

baland (sifat)

past

kulmoq

xursand bo'lmoq

katta

baxil

boy

yumshoq

uzun

og'ir

xafa

Bu ikki topshiriqdan maqsad o'quvchilarga lingvistik ko'nikmalarni o'rgatishda individual va hamkorlikda o'qitishning farqli tomonlarini tekshirish hisoblanadi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish-o'rganishdir[3]. Shuning uchun ham hamkorlikda ishlashda har bir o'quvchi birgalikda ishlashi, bir-biriga yordam berishi kerak. Shundagina past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham guruhning natijasi uchun harakat qiladi, mas'uliyat oladi, bilmagan jihatlarini ham o'rganishga harakat qiladi.



Hamkorlikda o'qitishni tashkillashtirishda o'qituvchining ham o'ziga xos vazifalari bor. U o'quvchilar orasida quyidagi muhitni tashkil etishi lozim:

- o'quvchilar o'rtasida do'stona munosabatni tashkillashtirish;
- har bir guruh a'zolariga yordam ko'rsatishi;
- har bir fikrga hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- shaxslararo o'zaro munosabatni o'rnata olish;
- nizolarning oldini olish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiyaga sinergetik yondashuv dars samaradorligini oshirish vositasi, fanlararo aloqalarning yangi sifat darajasiga ko'tarilgan shakli hisoblanadi. Barcha jabhalarda sinergetik yondashuvning o'ziga xosliklari o'rganib kelinmoqda. Biroq o'zbek tilini o'qitishda bu yondashuv yetarlicha tadqiq qilinmagan. Shu sababli til o'zlashtirishda sinergetik yondashuvdan foydalanishda bir qator muammolarga duch kelinmoqda.

O'quvchilarda sinergetik yondashuv asosida lingvistik ko'nikmalarni shakllantirishda bir qator afzalliklarini ko'rish mumkin. Hamkorlikda o'qitish nafaqat o'quvchi uchun, balki o'qituvchi uchun ham o'z ustida ishlashi, o'z-o'zini namoyish etishda muhim omil hisoblanadi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – Москва: «ИКАР», 2009. – С. 133.
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Fan-innovatsiya", 2018. –B.142
4. Ibragimova Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinergetik yondashuv asosida shaxs sifatida shakllantirish shart-sharoitlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumandan. may 15-16, 2023.
5. Karimova M., & Tuychieva R. (2019). The pedagogical basics of training students for professional, moral and educational function. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311–317.
6. Usmonboyeva M., To'rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. –Toshkent, o'quv-uslubiy majmua, 2016 –B.155



|                                                                                                                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <i>Navruzova Xosiyat Izzatullo qizi. ILMIY-OMMABOP USLUBIDAGI MATNNI TUSHUNISHDA LINGVISTIK BILIMNING O'RNI</i>                                                                                                     | 701 |
| <i>Odiljonova Nilufar Abduvohob qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA TINGLAB TUSHUNISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH (A1 VA A2 DARAJALAR MISOLIDA) РАЗВИТИЕ КОМПЕТЕНЦИИ АУДИРОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ</i> | 706 |
| <i>Normuminova Dilobar Nuriddinovna. ONA TILI TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR: XORIY TAJRIBASI</i>                                                                                                                | 712 |
| <i>Rahmonova Dinora Nu'mon qizi. SINTAKSISNI O'QITISHDA BOSQICHLI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH</i>                                                                                                                   | 716 |
| <i>Rasulova Mushtariybonu Ahmadjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI BAHOLOVCHI TOPSHIRIQLAR METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH</i>                                           | 721 |
| <i>Saparova Saodat Ataxan qizi. ONA TILI DARSLARIDA ANIMATSIYADAN FOYDALANISH</i>                                                                                                                                   | 727 |
| <i>Sarimsakova Nigora Raxmatovna. TALABALARDA ILMIY-OMMABOP MATN YARATISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH</i>                                                                                                           | 731 |
| <i>Seytaliyeva Nodiraxon. TURKIY TILLAR TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI</i>                                                                                                                     | 735 |
| <i>Tog'onova Gulshirin Oltiboyevna. ONA TILI DARSLARIDA O'QUVSHILARINING O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>                                                                                   | 742 |
| <i>Tursun Shokirjon Alisher o'g'li. OLIY TA'LIMDA "TIL O'RGANISH VA TIL O'ZLASHTIRISH" MAVZUSINI O'QITISH YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR</i>                                                                          | 747 |
| <i>Turg'unova Nilufar Muxiddin qizi. 8-SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUV LOYIHALARI BILAN ISHLASH MAZMUNI</i>                                                                                                          | 752 |
| <i>To'rayeva Shaxnoza Baxodirovna. ASSOTSIATIV USUL ORQALI IMLO SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH</i>                                                                                                                   | 756 |
| <i>Umarova Iroda Shavkatjon qizi. TIL TA'LIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI: NAZARIY ASOSLAR, METODIK YONDASHUVLAR VA AMALIY TAVSIYALAR</i>                                           | 762 |
| <i>Umurzakova Zuxraxon Yusupjon qizi. ONA TILI DARSLARI UCHUN RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINI YARATISH</i>                                                                                  | 767 |
| <i>Usmonova Yulduz Faxriddin qizi. HAMKORLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHGA OID YONDASHUVLAR</i>                                                                                                                  | 774 |
| <i>Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna, Shirinova Yekaterina Turakulovna. TIL TA'LIMIDA PRAGMATIK YONADASHUVNING AHAMIYATI</i>                                                                                        | 780 |
| <i>Xaydarova Madinaxon Umidjonovna. SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH</i>                                                                                                    | 785 |
| <i>Feruza G'aybulloyeva. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI</i>                                                                                                                                                 | 790 |

